

JAHON BANKINING O'ZBEKISTONNI 2024 YIL UCHUN YALPI ICHKI MAHSULOTI PRAGNOZI

Djumayeva Gulnora

*Toshkent Shahar Chilonzor tumani 2-son maxsus maktabi
"Maxsus fanlar" kafedrasi o'qituvchisi*

2023-yilda O'zbekistonning real yalpi ichki mahsuloti investitsiyalar, xususiylar iste'mol va eksport hisobiga 6 foizga o'sdi. Davlat korxonalarini va xususiylar sektor korxonalarini kreditlash hajmining oshirilishi investitsiyalarning o'sishiga olib keldi. Real kreditlar (davlat korxonalarini va xususiylar sektorga berilgan kreditlar) 2021–22 yillardagi 5,1 foizdan 2022–23 yillarda 11,6 foizga o'sdi. Iste'mol narxlari inflyatsiyasi so'nggi yetti yildagi eng past darajaga tushib, 2022-yildagi 12,3 foizdan 2023-yil dekabrda 8,8 foizga tushdi. Bu hukumatning qat'iy pul-kredit siyosati va qo'shilgan qiymat solig'i stavkasining pasaytirilishi, shuningdek, xalqaro bozorlarda oziq-ovqat mahsulotlari va energiya narxlarining pasayishi bilan bog'liq.

2023-yilda o'zbek so'mi AQSh dollariga nisbatan 9 foizga qadrsizlandi. Bunga qisman Rossiya rublining (mamlakatning tashqi savdo bo'yicha asosiy hamkori valyutasi) AQSh dollariga nisbatan qadrsizlanishi sabab bo'lgan. 2023-yilda import o'sishi tezlashgani va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari hajmi qisqargani (oxirgisi rublning qadrsizlanishi bilan bog'liq) sababli joriy hisob taqchilligi bo'yicha holat yomonlashdi. O'zbekistondan gaz eksporti ichki iste'molning o'sishi fonida ikki barobar qisqardi. 2023-yilda mamlakat birinchi marotaba Rossiyadan gaz import qilishni boshladi.

Oltin-valyuta zaxiralari yetarli darajada saqlanib qoldi. Ularning hajmi 2023-yil dekabr holatiga ko'ra 34,6 milliard dollarni tashkil etdi. Ushbu resurslar 8 oy davomida import xarajatlarini qoplash uchun yetarli bo'ladi. Real ish haqining barqaror o'sishi kambag'allikni qisqartirishga yordam berdi, kambag'allik darajasi 2022-yildagi 5 foizdan 2023-yilda 4,5 foizgacha tushdi (daromadi o'rtadan past bo'lgan mamlakatlar uchun 2017-yil narxlaridagi xarid qobiliyati paritetiga ko'ra kuniga 3,65 AQSh dollari miqdoridagi xalqaro kambag'allik chegarasi bo'yicha baholanadi). Ishsizlik darajasi 2022-yildagi 8,9 foizdan 2023-yilda 8,1 foizgacha tushdi. 2023-yilda o'rtacha real ish haqi 7,8 foizga oshdi, bu nafaqat o'sib borayotgan talab, balki mehnat bozorida malakali kadrlar yetishmovchiligi tufayli ham sodir bo'ldi. Natijada, kambag'allarga qaraganda ko'proq malakali (va moddiy ahvoli yaxshiroq bo'lgan) ishchilar orasida ish haqining o'sishi yuqoriroq bo'ldi. Bu aholi o'rtasida daromadlar tengsizligining oshishiga olib keladi.

Jahon bankining hisob-kitoblariga ko'ra, kutilayotgan fiskal konsolidatsiya choralari hamda mamlakatning asosiy tashqi savdo hamkorlari bo'lgan Rossiya va Xitoyga eksport o'sishi sur'atlarining sekinlashishi ehtimolini hisobga olgan holda O'zbekiston YAIM o'sishi 2024-yilda 5,3 foizni tashkil etadi. Iqtisodiy o'sish asosan tuzilmaviy islohotlarning davom etishi hisobiga qo'llab-quvvatlanadi. Xususan, bunga davlat korxonalarini restrukturizatsiya qilish va davlat aktivlarini xususiylashtirish, shuningdek, energetika sohasini rivojlantirishga yirik sarmoyalar kiritish ta'sir ko'rsatadi.

Energetika sohasida tariflarni isloh qilish bilan bog‘liq bo‘lgan ichki energiya bozorida narxlarning nisbatan keskin oshishi hisobiga 2024-yilda inflyatsiyaning oshishi kutilmoqda (ushbu jarayon aholining kam ta‘minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya bilan qamrab olish choralari bilan birga amalga oshiriladi). Bu to‘laqonli inflyatsion targetlashga o‘tishni yakunlayotgan O‘zbekiston Markaziy bankining (MB) qat‘iy pul-kredit siyosati bilan qisman qoplanadi. O‘rta muddatli istiqbolda inflyatsiya 8 foizgacha sekinlashishi kutilmoqda, bu esa Markaziy bankning 5 foizlik maqsadli ko‘rsatkichidan yuqori. 2024-yilda import o‘sishi sur‘atlari mo‘‘tadil bo‘lishi kutilmoqda. Biroq ayrim tovarlar importi iqtisodiyotning turli tarmoqlarini modernizatsiya qilish va aholining o‘sib borayotgan iste‘molini qondirish uchun foydalanilishini hisobga olsak, import o‘sishi sur‘ati barqaror bo‘lib qoladi.

2024-yilda kambag‘allik darajasi 4,3 foizgacha qisqarishi kutilmoqda (daromadi o‘rtadan past bo‘lgan mamlakatlar uchun 2017-yil narxlaridagi xarid qobiliyati paritetiga ko‘ra kuniga 3,65 AQSh dollari miqdoridagi xalqaro kambag‘allik chegarasi bo‘yicha baholanadi). 2024-yilda budjet taqchilligi YAIMning 4,2 foizigacha, 2026-yilda esa 3 foizigacha kamayishi kutilmoqda. Ushbu ko‘rsatkichlarga yirik energetika subsidiyalarini va davlat korxonalarini rag‘batlantirish bo‘yicha samarasiz choratadbirlarni bekor qilish, shuningdek, davlat aktivlarini xususiylashtirishda davom etish orqali budjet daromadlarini ko‘paytirish hisobiga erishish rejalashtirilgan. Hukumat tashqi qarzlarni bo‘yicha o‘z cheklovlariga rioya qilishi kutilmoqda (“Davlat qarzi to‘g‘risidagi” qonunga muvofiq, davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga nisbatan maksimal miqdori YAIMning 60 foizidan oshmasligi belgilangan). Shu bilan birga, davlat qarzi 2024-yilda YAIMga nisbatan 36,5 foizgacha oshadi va 2026-yilga borib 34,4 foizgacha pasayadi.

Yuqoridagi prognozning pasayishi bo‘yicha xatarlar qatoriga O‘zbekistonning asosiy tashqi savdo hamkorlari bo‘lgan Rossiya va Xitoyda iqtisodiy o‘shish sur‘atlarining sekinlashishi, shuningdek, xalqaro moliya bozorlaridagi vaziyatning kutilganidan ko‘ra keskinroq bo‘lishi kiradi. Ichki xatarlar davlat korxonalarini va banklar tomonidan, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni amalga oshirish doirasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy majburiyatlarning oshishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Gazman.V.D (1999) — Leasing market textbook M.: Business and service 25-p
2. Горемыкин В.А. (2003) — Лизинг учеб - метод.пособие. - М.: Дело и сервис 51-с.
3. <https://ula.uz/uz/archive>